

«Sahoba bo'lishni xohlayman»



19:00 / 07.01.2019 4332

Maktablarning birida muallim birinchi sinf o'quvchilariga shunday topshiriq berdi: "Har biringiz kelajakda kim bo'lishni xohlashini aytsin".

Javoblar turlicha edi. O'quvchilar ichida "uchuvchi", "tabib", "mirshab", deb aytganlar bo'ldi. Boshqalarining javobi ham shu narsalar atrofida aylanar edi. Lekin ulardan biri g'aroyib

javob aytdi. Undan o'quvchilar kulishdi.

U nima deganini bilasizlarmi? U: «Men sahoba bo'lishni xohlayman», dedi. Muallim bu

o'quvchidan taajjublanib: «Nima uchun aynan sahoba?» dedi. O'quvchi: «Onam har kuni uqlashimdan oldin menga bir sahabaning qissasini aytib beradi. Sahoba Allohn ni yaxshi ko'radi, u botir... Men unga o'xshagan bo'lishni yaxshi ko'raman», dedi.

Muallim jim bo'lib qoldi, ushbu javobdan ta'sirlanib ko'zyoshini to'xtatishga harakat qilardi. Muallim bildiki, bu bolaning ortida buyuk ona bor ekan. Shuning uchun bolaning xohishi ham buyuk edi.

**«Qisasun allamatnil hayatu» kitobidan
G'ulomiddin Meliboev tarjimasi,
islom.uz**